

O`ZBEKISTONDA TA`LIM VA TA`LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O`RNI

Abdullahjonov Davronjon Shokirjon o'g'li

Qo'qon Universiteti kafedrasи o'qituvchisi,

Anonatsiya: Mazkur tezisda bugungi kunda O`zkekistonning ta`lim tizimi haqida va ta`lim tizimida nimalarga e`tibor qaratilishi haqida ta`lim ko'pincha o'qituvchilar rahbarligida amalga oshiriladi haqida keltirilib o`tildi.

Kalit so`zlar: ta`lim, kadrlar, oliy ta`lim, bakalavriat, iqtisod, magistratura, ta`lim vazirligi, axborot, texnologiya

Kirish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta`lim samaradorligining muhim omili bo'lmoqda.

O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Ayni shunday sa'y-harakatlar amalga oshirilishi ta`lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o'qituvchilami ilg'or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta`lim muassasalari tajribasini chuqur o'rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta`lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.

Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning o'zi nima degan savol tug'ladi? Ko'pgina mutaxasislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, mul'timedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video matn, grafika va animasiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir.

Kompyuterlarning 70-yillarda ta`lim sohasida keng qo'llash yo'lida urinishlar zoye ketganligi avvalambor ular unumdorligining nihoyatda pastligi bilan bog'liq edi. Amaliyot shuni kursatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumli va vaqtadan yutish mumkun. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtini tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayetgan materiallarni kurish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% oshadi. Bunga qushimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan xolda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.

Darsliklardan foydalanilgandagi singari, multimedia vositalarini qo'llashda ham ta`lim strategiyasi ta`lim jarayonida o'qituvchi nafaqat axborotlarni taqdim etish, balki ta`lim oluvchilarga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash va jarayonni boshqarib borish bilan shug'ullangandagina mazmunan boyitilishi mumkin.

TA`LIMNI BOSHQARISH ORGANLARI

Ta'lim tizimining umumiy boshqaruvini Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi alohida oliy ta'lim muassasasi, Toshkent Islom Universiteti, shuningdek xalqaro mashhur xorijiy OTMlar (MDU, Westminster Universiteti va hokazo) filiallarini bevosita boshqaradi.

O'zR OOMTV tizimi**TAShKILIY STRUKTURASI**

Davlatimiz fuqarolarining bilim olishlari O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasi bilan kafolatlangan.O'zbekiston Respublikasi yoshlari tarbiyasida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi. "Oliy ta'lim" atamasi zaminida iqtisod, fan, texnika va madaniyat sohasida faoliyat olib boruvchi, ish mobaynida ilm-fan, madaniyat, texnika yangiliklarini qo'llagan va o'z ustida ishlagan holda nazariy va amaliy muammolarni bartaraf etuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tushuniladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura.**Bakalavriat**

"Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi "Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom" bilan, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi "Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida Nizom" bilan belgilanadi.

Bakalavriat – fundamental bilimlar beriladigan asosiy oliy ta'lim bo'lib, to'rt yil davom etuvchi oliy ta'limning yo'naliishlaridan biri. Bitiruvchilarga davlat attestatsiya natijalariga ko'ra, bakalavriyat ta'lim daturining oxirida tayyorlov yo'naliishiga ko'ra "bakalavr" akademiyak unvoni, munosib ko'krak nishoni va davlat namunasidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida ta'limni shakllantirish va yanada rivojlantirish maqsadida bir qancha asosiy ishlar va chora-tadbirlar olib borilmoqda. Multimedia vositalari ta'lim berishni samarali va istiqbolli quroli bo'lib u o'qituvchiga an'anaviy ma'lumotlar manbaidan ko'ra keng ko'lamdag'i ma'lumotlar taqdim etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Davronjon, A., & Gulmiraxon, K. (2022). WIDESPREAD INTRODUCTION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE REAL SECTOR OF THE ECONOMY, AS WELL AS IN AGRICULTURE AND WATER MANAGEMENT. *World Economics and Finance Bulletin*, 9, 167-172.
2. Abdullajonov, D. S. O., & Kasimova, G. K. Q. (2022). DEVELOP A TRAINING PROGRAM FOR YOUNG PROFESSIONALS IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS, WHICH IS THE CORE OF CYBERSECURITY. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 185-192.
3. Shokirjon o'g'li, A. D. (2023). AXBOROT TEKNOLOGIYALARI SOHASIDA ILMIY IZLANISHLAR OLIB BORISH TENDENSIYALARI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1223-1227.

4. Abdullajonov, D., & Qosimova, G. (2022). OZBEKİSTONDA KİBERXAVSİZLİK VA RAQAMLI İQTİSODİYOT RIVOJLANISHINING AXBOROT JAMIYATI SHAKLLANISHIDAGI ORNI. *Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук*, 2(13), 29-37.
5. Shokirjon o'g'li, A. D., & Solijon o'g'li, T. U. (2022). The Application of Digital Technologies to Enterprises and Organizations Will Help Reduce Social and Economic Costs. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 4, 131-140.
6. Abdullajonov, D. (2021). RAQAMLI TEKNOLOGİYALAR ORQALI YANGI O'ZBEKİSTONNING İQTİSODİYOTINI RIVOJLANTIRISH, RAQAMLI İQTİSODİYOTNING İSTIQBOLLARI. *Экономика и социум*, (12-1 (91)), 28-33.
7. Абдуллажонов, Д. Ш., & Одилов, А. (2023). ОСНОВЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ PHP И БД. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(11), 229-241.
8. Shokirjon o'g'li, A. D., & SHerqo'ziyevna, T. M. (2023). KOMPYUTERNİG MANTIQIY ISHLASH PRİNSİPI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1268-1269.
9. Olimov, I. (2023). DEVELOPMENT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OUR COUNTRY ALONG WITH INTERNET TECHNOLOGY INNOVATIONS. *Modern Scientific Research International Scientific Journal*, 1(2), 210-216.
10. Surayyoxon, M., & Davronjon, A. (2023). BUGUNGI KUNDA TALIMDA RAQAMLI TEKNOLOGİYALARНИNG AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1210-1212.
11. Mulaydinov, F. M., & qizi Qosimova, G. Q. (2022). QISHLOQ XOJALIGIDA MEXNAT BALANSI VA UNING MEXNAT RESURSLARIDAN UNUMLI FOYDALANISHDAGI ROLI. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(9), 587-592.
12. Otto, M., & Thornton, J. (2023). JAHON İQTİSODİYOTI VA XALQARO MUNOSABATLAR. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 216-219.
13. Abdullajonov, D., & Qosimova, G. (2022). O'ZBEKİSTONDA MASOFAVIY TA 'LIMINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(13), 1402-1407.
14. Universiteti, O. A. Q. Q., & Davronjon, A. (2023). BUGUNGI KUNDA DASTURLASH TIL VA UNING BOSHQARUVDAGI ROLI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1193-1194.